



MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIY “NAVOBIG’UL-KALIM”(“NOZIK
IBORALAR”) ASARIDAGI NUTQ ODOBIGA OID QARASHLARI

Ahmedova Hikmatxon Tursunovna
Qo‘qon davlat universiteti dotsenti

Annotatsiya. Maqolada Abu-l-Qosim Mahmud az-Zamaxshariyning “Navobig’ ul-kalim” (“Nozik iboralar”) asaridagi nutq odobiga doir qarashlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: nutq, nutq odobi, so‘z, tinglash odobi, yozma nutq, og‘zaki nutq.

ВЗГЛЯДЫ МАХМУДА АЗ-ЗАМАКШАРИ НА РЕЧЕВОЙ ЭТИКЕТ

Аннотация. В статье анализируются взгляды Абу-л-Касима Махмуда аз-Замахшари на речевой этикет в его труде «Навабиг ул-калим» («Нежные фразы»).

Ключевые слова: речь, речевой этикет, речь, слуховой этикет, письменная речь, устная речь.

VIEWS OF MAHMUD AZ-ZAMAKSHARI ON SPEECH ETIQUETTE

Annotation. The article analyzes the views of Abu-l-Kasim Mahmud al-Zamakhshari on speech etiquette in his work "Nawabig ul-Kalim" ("Gentle Phrases").

Key words: speech, speech etiquette, speech, auditory etiquette, written speech, oral speech.

Jahon fani va madaniyatiga salmoqli hissa qo‘shgan ulug‘ alloma bobomiz Abu-l-Qosim Mahmud az-Zamaxshariy boy ilmiy meros qoldirgan. Tilshunoslik, lug‘atshunoslik, adabiyot, geografiya, axloqshunoslik, falsafa, hadis, fiqh va qiroat ilmiga oid asarlarining aksariyati bizgacha etib kelgan.

Olimning “Navobig’ ul-kalim” yoki “Al-kalim an-navobig’” deb ataluvchi asari ham muhim ahamiyatga ega. Allomaning Makkada yashagan paytida yozilgan bu asar hikmatlar, nasihatlar majmuasi bo‘lib, turli masalalarni o‘z ichiga oladi. Asar o‘zbek tiliga Ubaydulla Uvatov tomonidan tarjima qilingan va 1992 yili “Nozik iboralar” nomi bilan nashr etilgan. Zamaxshariyning turli masalariga oid qarashlari, jumladan, so‘zning xosiyati va nutqning mohiyati haqidagi qimmatli fikrlari ham asarda o‘z aksini topgan.

Olim o‘z tiliga egalik qilolmaydigan kishining imoni zaifligini quyidagicha ta’kidlaydi: “Agar tilingning ortiqcha so‘zlashiga ega bo‘la olmasang, unda tizgining jilovini shaytonga topshirgan bo‘lasan”. [1: 25]

Zamaxshariy tilni tiya olmaslik natijasida yuzaga keladigan holatlar, noxush vaziyatlar haqida: “Ko‘pincha til bilan etkazilgan jarohat qiliq bilan etkazilgan jarohatdan



og'irroqdir", – deydi. [1: 58] Bu mulohaza xalqimizning *"Tig' yarasi bitar, til yarasi bitmas"* maqolini yodga soladi.

Suhbatda ortiqcha so'zlarga zarurat yo'qligini ta'kidlagan olim *"Ko'p ortiqcha so'zlashuv eshituvchini ranjitar"* [1:70] degan to'xtamga keladi. Zamaxshariyning fikricha, dili to'g'ri bo'lganning tili ham to'g'ridir, haqgo'y odamning xatoyu nuqsoni kam bo'ladi.

Zamaxshariy so'z va iboralarning ma'nosini yaxshi bilish kerakligini, chiroyli so'zlarni bilib-bilmay ishlatish xijolatli ahvolga tushib qolishga sabab bo'lishini uqtiradi: *"Ko'p so'z-iboralar borki, odamlarga ular fasohatli ko'rinsa-da, Alloh nazdida nomaqbuldir – so'zlovchini ham, tinglovchini ham mulzam qilur"*. [1: 58]

Umr bo'yi dunyo kezgan, har xil voqealarga guvoh bo'lgan, turli taqdirlarni ko'rgan Zamaxshariy hayotiy tajribalarga tayangan holda noo'rin aytilgan so'z og'ir oqibatlariga olib kelishini qayd etadi: *"Ko'p so'zlar borki, ular seni jangu jadalga solib, halokatga giriftor qiladi yoki ulardan qaytarsa ham elka chuquringni gul kabi qizargan holga keltirgandan keyin qaytaradi"* (ya'ni ko'p mashaqqatlardan keyin). [1: 58]

Nasihat tarzida aytilgan so'z bebaho. Zamaxshariy nasihatning najotkorlik qudratini e'tirof etadi: *"Nasihat etuvchi so'z ta'siridan seni kim chalg'itdi. Vaholanki, u nasihatchi sening azob-uqubatlardan xalos bo'li-shingga sababchi edi"*. [1: 70]

Zamaxshariy so'zni behuda isrof qilishni, so'zbozlik bilan vaqt o'tkazishni qoralaydi: *"... majlisingdagi suhbatdoshingga (oddiy) bir teng-qur sifatida bo'lma"* (bir-biringga ilma'ma'rifatda foydali bo'l ma'no-sida). [1: 68]

Tinglash odobi tug'ishganlar, hammaslaklar haqiga rioyat qilishning shartlaridan biri ekanini quyidagicha uqtiradi: *"O'z birodaringni yanchilgan mushkdan ko'ra ham xushbo'y so'zlar bilan maqtab yod et, garchand u sendan uzoq shaharda bo'lsa ham"*. [1: 50]

YOki boshqa o'rinda: *"O'z birodaring so'zini sukut saqlab tinglab, uning hurmatini o'rniga qo'y, garchi uni eshitishga rag'bating va mayling yo'q bo'lsa ham"*. [1: 52]

Albatta, alloma bunda so'zda sehr va mehr borligini nazarda tutadi.

Aynan shu tarzdagi munosabat insonlar o'rtasidagi oqibatni kuchaytirishi, adovatni yo'qotishi, dushmani do'stga aylantirishi mumkinligini ta'kidlaydi. Zamaxshariy yomon so'zlar inson sha'niga nomunosib ekanini uqtirish maqsadida: *"Ey bo'tam, tilingni yomon so'zlardan saqla!"* – deya ogohlantiradi. [1: 79]

Olimning talqinicha, insonning saxiyliги faqat moddiy boyliklarni ehson qilishdangina iborat emas. SHunday so'zlar borki, ular ko'ngilga taskin beradi, qalblarni charog'on qiladi. Aytilgan gap pand-nasihat ruhida bo'lar ekan, bu har qanday sadaqadan yaxshiroqdir: *"Tilingdan chiqqan sadaqa (ya'ni pandu nasihatining va mav'izayu hasanang) ba'zan qo'lingdagi (mol-dunyongdan) chiqqan sadaqangdan ko'ra xayrliroqdir"*. [1: 57]

YOlg'on so'zlash, bo'hton qilish inson tabiatidagi eng yomon illatlardir. Barcha mutafakkirlarning nutq odobi va madaniyatiga oid qarashlarida bu borada juda ko'p fikrlar aytiladi, yolg'on so'zlamaslikka da'vat etila-di: *"Misvoklar (tish tozalagichlar) bilan og'zingni tozalading, koshki endi bundan keyin sen og'zingni (tilingni) bo'xton, yolg'on, g'iybat so'zlarni aytish bilan bulg'amasang"*. [1:62]



Har bir narsada me'yor bo'lishi lozim. Garchi yaxshi va nazokatli so'zlar aytilayotgan bo'lsa ham, uzoq davom etgan so'zlashuv eshituvchiga malollik qiladi. Nutq aniq, ixcham bo'lishi, shuningdek, unda vaqtni ham inobatga olinishi lozimligini olim quyidagicha uqtiradi: *“Ko'p ortiqcha so'zlashuv eshituvchini ranjitar”*. [1: 70]

SHarq donishmanligida til va dilning birligi insoniy fazilat sifatida ulug'lanadi, chunki bu xususiyat insonning haqgo'y ekanligidan dalolat beradi. Mahmud Zamaxshariy bunday kishilar kam xato va kamchilikka yo'l qo'yishini ta'kidlaydi: *“Tiliyu dili to'g'ri va haqgo'y bo'lgan odamning xatoyu nuqsoni kam bo'lur”*. [1: 71]

Asarda *“So'z – kumush, sukut – oltin”* maqolining o'ziga xos talqinini ham ko'rish mumkin: *“Aqlli g'ofil kishining (sukut saqlab) jim turish holati johil, parishon kishining uzridan afzaldir”*. [1: 55]

Boshqa o'rinda: *“Ko'rkam hayotning hosil bo'lib davom etishiga sabab bo'lgan narsa uzoq vaqt sukut saqlashni ixtiyor qilishdir”*. [1: 74]

Zamaxshariy yozma nutq og'zaki nutqdan farq qilishini, bu jarayonda inson o'zini nazorat qilishga majbur ekanini ta'kidlar ekan: *“Agar birovni ayblab itob qilmoqchi bo'lsang, zinhor yozma tariqada (qog'oz, xat bilan) qil, chunki birov-birovga qarshi bo'lib, ayblash kam aqllilar va telbalar ishidir, bu holda ko'ngilni siyoh qilishga sabab bo'lguvchi so'zlar hisobsiz aytilishi muqarrar, ammo xat yozganda esa emin-erkin o'ylab, fikr-mulohaza bilan yoziladi”*, – deb yozadi. [1: 66]

“Nozik iboralar” asarida ilm, xattotlik san'ati haqida ham e'tiborga loyiq fikrlar bildirilgan: *“Kotibning yozuv xati bilan qoralash (yozish)i go'zal qizning yonog'ida bo'lgan guldan go'zalroqdir”*. [1: 54]

Zamaxshariyning fikricha: *“Ilmli bo'lish o'qish, o'qitish, yozish bilan hosilu mukammal bo'ladigan bir saboqdir. Agar olim kishi chiroyli, xushxat yozuvga ega bo'lsa, bu uning kamolotga etganidan dalolatdir”*. [1: 63]

N.Sulaymonova e'tirof etganidek, “Az-Zamaxshariyning “Navobig'-ul-kalim” (“Nozik iboralar”) asari hanuzgacha axloqshunoslik ilmining nozik maktabi sifatida e'tirof etiladi, chunki allomaning asardagi qarashlari serqirra”. [2:]

Allomaning “Nozik iboralar” asari kuchli tafakkur mahsulidir. Unda hayotning nozik jihatlariga e'tiborli bo'lish, jumladan, so'zning nazokati va qudratini his etish, nutq madaniyati mezonlariga amal qilish, yozma nutqning, ilmning va xushxatlikning ahamiyati kabi masalalarda e'tiborga molik fikrlar bayon etilgan.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abu-l-Qosim Mahmud az-Zamaxshariy. Nozik iboralar / Tarjima va sharhlar muallifi U.Uvatov. – Toshkent: Kamalak, 1992.
2. Sulaymonova N. Mahmud az-Zamaxshariyning adabiy merosi nashrlari // Til va adabiyot ta'limi, 2005. – № 2.
3. H.Ahmedova. Analysis and Description of Ancient Sources of Speech Culture . . Journal of Advanced Zoology, Volume 44 Issue 04 Y
<https://jazindia.com> [scops ear2023 Page
4. H.Ahmedova. A.Navoiyning “Mahbub-ul-qulub” asaridagi nutq madaniyatiga oid qarashlari. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10315527>
5. H.T.Ahmedova. The role and importance of the east individual creators in the development of rhetoric subject. Journal of Positive School Psychology. 2022. <https://journalppw.com/index.php/jpsp/article/view/13940>